

Бухарского государственного университета  
Bukhara State University



## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2024, № 9, sentabr**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Jamilova Bashorat Sattorovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'yumurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Norboyeva Umida Toshtemirovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbanova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbanovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Oybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS**

**TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Бушуй Т.А.</b>	Краудсорсинговый словарь туристических терминов	<b>4</b>
<b>Фалеева Е.В.</b>	Лексические инновации и их семантические типы в современных словарях английского языка	<b>10</b>
<b>Xazratova I.F.</b>	O'zbek va ingliz tillarida "adolat" konseptining etimologik va kulturologik tadqiqi	<b>15</b>
<b>Salimova D.F.</b>	O'zbek bolalarida yangi so'z o'zlashtirish jarayoni tadqiqi	<b>19</b>
<b>Safarova O.M.</b>	Farmatsevtika terminining shakllanishi	<b>23</b>
<b>Odilova N.N.</b>	Ertak va afsonalardagi mifonimlar va ularning qiyosiy tadqiqi	<b>28</b>
<b>Latifova M.Y., Asadov T.H.</b>	O'tkir Hoshimovasarlaridagi -day/dek affiksli turg'un va erkin o'xshatishlar tadqiqi	<b>32</b>
<b>Jo'raeva L.J.</b>	Navoiy asarlaridagi xalq-urug' nomlarining lingvokulturologik tadqiqi	<b>36</b>
<b>Ganiyeva M.</b>	Functional aspects of translation of internet neologisms in english and uzbek	<b>40</b>
<b>Faleeva A.V.</b>	Socio-cultural and territorial features of variations in the component composition of english spoken expressions	<b>44</b>
<b>Azimova A.O'.</b>	Toshpo'lat Ahmad she'riyatidagi milliylikni ifodalovchi til va nutq birliklari haqida	<b>49</b>
<b>Asadov T.H., Saidova X.F.</b>	O'zbek lug'at qatlamidagi neologik shaxs otlari va ularning tarkibiy-mazmuniy tuzilish	<b>54</b>
<b>Turdimurodov S.E.</b>	Fe'l evfemik birliklarning til va nutqdagi o'rni	<b>59</b>
<b>Soatova M.S.</b>	Harbiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari	<b>64</b>
<b>Shamsiddinova S.B.</b>	"Gilgamish" eposidagi to'fon qissasi hayot va o'lim ramzi sifatida	<b>70</b>
<b>Ruziyeva N.X.</b>	Nutqiy muloqotda xushmuomalalik, evfimizm va feysning o'rni	<b>74</b>
<b>Jo'rayeva N.</b>	Evfemizmlar o'zbek ayollari nutqi misolida	<b>79</b>
<b>Bafoyeva N.A.</b>	Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida shaxs nomlari tarkibida qo'llangan qo'shimchalar tahlili	<b>83</b>

## О‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDAGI -day/dek AFFIKSLI TURG`UN VA ERKIN O’XSHATISHLAR TADQIQI

*Latifova Maftuna Yashin qizi,*

*Buxoro pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi o‘qituvchisi*

*Asadov To‘lqin Hamroyevich,*

*Buxoro davlat universiteti, o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika  
kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

**Annotatsiya.** Maqolada turg‘un va erkin o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari badiiy matn doirasida o‘rganildi, misollar keltirildi va izohlandi. O‘xshatish qiyosga asoslanadigan eng qadimgi tasviriy vosita sanalib, ularning lingvistik tadqiqi millatimizning qadim o‘tmishi, dunyoqarashi, narsalarni bir-biriga qiyoslashdagi salohiyati kishilarning ma‘naviy olami bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi haqidagi fikrlar keltirildi. Turg‘un o‘xshatishlarning lisoniy hodisa, erkin o‘xshatishlarning nutqiy hodisa ekanligi, ularning lug‘atlarga munosabati kuzatildi. O‘tkir Hoshimov asarlaridagi -day/dek affiksli erkin o‘xshatishlarning yuzaga kelish omillari, tarkibiy-mazmuniy tuzilishi tasnif va tavsif etildi. Erkin o‘xshatishlarni paydo bo‘lishi, bundagi zarurat, ularning matndagi stilistik-funksional o‘rni misollar asosida keng tadqiq etildi.

**Kalit so‘zlar:** o‘xshatish, tasviriy vosita, o‘xshatish komponenti, turg‘un o‘xshatish, an‘anaviy o‘xshatish, erkin o‘xshatish, o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi, o‘xshatish vositasi.

## ИССЛЕДОВАНИЕ УСТОЙЧИВЫХ И СВОБОДНЫХ АНАЛОГИЙ С АФФИКСОМ-DAY/DEK В РАБОТАХ ОСТРОГО ХАШИМОВА

**Аннотация.** В статье были изучены лингвистические особенности устойчивых и свободных аналогий в рамках художественного текста, приведены примеры и даны пояснения. Сравнение считается древнейшим изобразительным средством, основанным на сравнении, и их лингвистическое исследование выдвинуло мысль о том, что древнее прошлое нашей нации, ее мировоззрение, ее потенциал в сравнении вещей друг с другом неразрывно связаны с духовным миром людей. Наблюдалось, что устойчивые аналогии-языковое явление, а свободные аналогии-речевое явление, их отношение к лексике. Классифицированы и описаны факторы возникновения, структурно-содержательная структура свободных аналогий с аффиксами-day/dek в работах острого Хашимова. Возникновение свободных аналогий, необходимость в них, их стилистико-функциональная роль в тексте широко исследовались на примерах.

**Ключевые слова:** аналогия, изобразительная среда, компонент сравнения, фиксированная аналогия, традиционная аналогия, свободная аналогия, субъект сравнения, эталон сравнения, основа сравнения, инструмент сравнения.

## A STUDY OF THE-DAY/DEK AFFIX STEADY AND FREE LIKENESSES IN THE WORKS OF THE OTKIR HOSHIMOV

**Abstract.** In the article, the linguistic features of stagnant and free analogies were studied within the framework of the artistic text, examples were given and annotated. The analogy is considered the oldest pictorial instrument based on comparison, and opinions have been drawn that their linguistic study is inextricably linked with the spiritual world of people, the ancient past of our nation, the worldview, the potential for comparing things with each other. It was observed that stationary analogies are a linguistic phenomenon, free analogies are a speech phenomenon, their attitude to dictionaries. The factors of occurrence, structural-substantive structure of the-day/dek affix-free analogies in the works of Hoshimov were classified and described. The emergence of free metaphors, the necessity in it, their stylistic-functional place in the text were extensively researched on the basis of examples.

**Keywords:** emulation, pictorial medium, emulation component, stationary emulation, traditional emulation, free emulation, emulation subject, emulation benchmark, emulation basis, emulation tool.

## LINGUISTICS

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar, uning tasviriy vosita sifatidagi badiiy matndagi roli, lingvistik tabiatи atroflicha o'rganilgan[1;6;7]. Yaqin yillarda o'zbek tilidagi an'anaviy (turg'un) o'xshatishlarni jamlagan maxsus lug'atning yaratilishi bu boradagi ishlar ko'lmini belgilovchi dalil ham bo'la oladi[5]. Sintaktik birliklar sanaladigan badiiy tasvir vositalari, jumladan, o'xshatish "trop" (troplar) termini ostida ham o'rganiladi. Troplar nutq ta'sirchanligini oshirish, ifodaviylikni ta'minlash maqsadida qo'llanadi[3,100].

O'xshatishlar jonli so'zlashuv tili hamda badiiy matnda keng qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Prof. S.Karimov o'xshatishlar qo'llanishi borasida shunday yozadi: "So'zlashuv jarayonida o'xshatish hikoya qilayotgan narsa va hodisaning kengroq ko'lamdagi obrazini chizishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda esa uning vazifasi ancha mas'uliyatlairoq. U badiiy adabiyotda obraz yaratishga ko'maklashadi"[3,101]. O'xshatishlar tilning ichki imkoniyati, har bir til jozibasi, shu tilda fikrlovchi shaxs tafakkur ko'lami, dunyonidirok etish salohiyati bilan ham baholanadi. "Til dunyoni bilish., ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajarar ekan"[4,44], bunda o'xshatishlar ham til va nutqda o'z pozitsiyasiga ega, albatta. Zero, tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insонning tabiiy tilini...aniq bir milliy qiyofa yoki milliyruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo'lgan suniy tilga tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqasadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas"[4,44].

O'xshatish qiyosga asoslanadigan eng qadimgi tasviriy vosita sanaladi. An'anaviy o'xshatishlarni tadqiq va tahsil etish orqali millatimizning qadim o'tmishi, dunyoqarashi, o'xshatishidagi salohiyati, ma'naviy olami, idrokini ham his etib turamiz. O'xshatishda uning tuzilmasida, odatda, to'rt unsur nazarda tutiladi: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatish vositasi. Ayrim manbalarda "o'xshatish maqsadi" haqida ham so'z boradi [9,153].

O'xshatish etaloni o'xshatish konstruksiyanining poetik qimmatini, estetik salmog'ini belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lsa, o'xshatish konstruksiysi ham shu darajada ohorli bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan holatlarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat [8,281]. Mazkur holat ko'pincha muallif nutqi bilan bog'liq o'xshatishlarda kuzatiladi. Muallif o'xshatishlari erkin o'xshatishlar ham deyiladi. Erkin o'xshatishlar ijodkor mahoratini ko'rsatuvchi omillardan biri sanaladi. Hayot falsafasining chuqur bilimdonlari, shuningdek, mushohadali, til sezgirligi yuqori bo'lgan ijodkorlargina mantiqqa asoslangan, go'zal ko'rinishli o'xshatishlar yaratishga usta bo'lishadi [2,92]. Erkin o'xshatishlar asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki uning tuzilmasiga mansub unsurlar doim ham qat'iy bo'lmaydi, ular o'zgarib turadi.

Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarida *-day/dek* grammatik vositasi (o'xshatish vositasi) orqali hosil bo'lgan turg'un o'xshatishlar kop uchraydi. Bu guruhga quyidagilar mansub: arvohdek, ayiqdek, azroildek, angishvonadek, baliqdek, barkashdek, bilakdek, boladek, bulbuldek, buлоqdek, bo'zdek, bo'yradek, bo'riday, danakdek, devdek, devordek, dokadek, dumdek, do'zaxdek, do'ppidek, ertakdek, echkidek, eshakdek, farzanddek, farishtadek, gadoydek, gavhar donalaridek, guldek, go'rday, halqaday, haykaldek, hayvondek, ho'kizdek, ilondek, ilon chaqqandek, ipdek, kaftdek, kafandek, kalladay, kamalakdek, kapalakdek, koptokdek, kosovdek, katalakdek, ko'zdek, marjondek, marmarday, maymundek, mixday, mix qoqqanday, moldek, momaqaldiroqdek, moyday, munchoqdek, musichadek, muzdek, mushtdek, mushukdek, nayzaday, nondek, nordek, nuqradek, odamdek, olmadek, olovdek, omburdek, otday, otning kallasidek, oydek, patnisdek, pashshsadek, piyoladek, piyoz po'stidek, popukdek, pufakdek, qaldirg'ochdek, qaldirg'och bolasidek, qasrdek, qilichday, qordek, qopdek, qoqqan qoziqdek, qozondek, qurtdek, quyonday, quyoshday, quyundek, qushdek, qong'iroqday, qo'ydek, qochqordek, rapidadek, sandiqdek, sehrlangandek, soyaday, soch tolasidek, supadek, suratday, sutdek, suv quygandek, so'loqmondek, tarashadek, tariqday, taxtaday, tayoqdek, tangadek, temirdek, terakday, tirmoqday, talqondek, tovuqday, toyloqdek, tog'dek, toshbaqadek, tog'dek, toshday, tuxumdek, tuyadek, tushday, undek, vulqondek, xumchadek, yashindek, yaproqday, yeldekk, yeb yuborgudek, qurbaqadek, quzg'undek, yoqutdek, yulduzdek, zanjirdek, zahardek, zig'irday, zulukdek, o'pqondek, o'radek, o'tdek, o'qday, g'unchaday, shamdek, shapaloqdek, sharpaday, sherdai, chaqmoqdek, chayondek, chayon chaqqandek, chigirkaday, chillakdek, chinnidek, choynakdek, chumoliday, chumchuqdek, cho'michdek, cho'gdek va b. Badiiy matindan olingen misollarni kuzatamiz: 1. *Xayolimga yashindek urilgan fikrdan seskanib ketdim.* ("Tushda kechgan umrlar") 2. *Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo'lib yurdi.* ("Ikki eshik orasi") 3. *Lo'ppi yuzi yanayam shishib, barkashdek bo'lib ketgan.* ("Dunyoning ishlari") 4. *Uyaxshi chalayotganini, tor o'zining qo'lida bulbulday sayrayotganini bilar, bilgan sayin zavq bilan chertardi.* ("Bahor qaytmaydi") 5. *Devdek mashina u yoqqa bursa, u yoqqa buriladi, bu yoqqa bursa – bu yoqqa.* ("Ikki eshik orasi")

## LINGUISTICS

-day/dek vositali turg'un o'xshatishlarning lingvistik tadqiqi – semantik-struktur tahlili quyidagi xulosalar chiqarishimizga asos bo'ladi:

I. Tarkiban sodda va murakkab o'xshatishlar:

1. Sodda tarkibli o'xshatishlar: *azroildek, angishvonadek, boladek, devordek, dokadek, dumdek, do'zaxdek, do'ppidek, ertakdek, echkidek, eshakdek, farzanddek, farishtadek, gadoydek* va b.

2. Murakkab tarkibli o'xshatishlar: *gavhar donalaridek, ilon chaqqandek, otning kallasidek, piyoz po'stidek, qaldirg'och bolasidek, qoqqan qoziqdek, suv quygandek, yeb yuborgudek* va b.

II. Manoviy guruhiiga ko'ra;

1. Asosi aniq otlardan iborat o'xshatishlar:

a) asosi narsa oti: *angishvonadek, barkashdek, bo'zdek, bo'yradek, danakdek, devordek, dokadek, do'ppidek, gavhar, halqaday, haykaldek, ipdek, kafandek, koptokdek, ko'zdek, tasmadek, marjondek, marmarday, mixday* va b.

b) asosi hayvon (hasharot, parranda) oti: *ayiqdek, baliqdek, bulbuldek, bo'riday, echkidek, eshakdek, ho'kizdek, ilondek, kapalakdek, maymundek, moldek, musichadek, mushukdek, qaldirg'ochdek, qaldirg'och bolasidek, quyonday, chigirtkaday, qushdek, tovuqday, toyloqdek, toshbaqadek, tuyaday, zulukdek, qurbaqadek, quzg'undek, sherdai, chayondek, chumoliday, chumchuqdek* va b.

c) asosi o'simlik oti: *guldek, piyoz po'stidek, yaproqday, zig'irday, g'unchaday* va b.

2. Asosi mavhum otlardan iborat o'xshatishlar: *arvohdek, azroildek, devdek, do'zaxdek, farishtadek, sharpaday* va b.

O'tkir Hoshimov asarlarida -day/dek vositasi bilan hosil bo'lgan turg'un o'xshatishlar bilan bir qatorda erkin, ya'ni ijodkor individual nutqi o'xshatishlai ham ko'p kuzatiladi. Mazkur guruhg'a belkurakday, bodom guliday, bodringdek, dorbozlardek, etikday, guvaladek, jarrohdek, jovadek, kovushdek, lentadek, mahsidek, mag'zavadek, novvot parchasidek, oqqushdek, pahlavondek, polvondek, pilladek, poyezzdek, qabrdek, qassobxonadek, qoramoydek, sariyog'dek, savalab tashlagandek, sigiday, sumalakdek, supurgidek, teplavoz gudogidek, tillaqoshdek, tiqmachoqdek, tirrakdek, tovadek, tuyrukdek, saksovuldek, o'qlovday, shaftolidek, upadonidek, uydek, xirmondek, yelpig'ichdek, yovvoyidek, yugurgudek, yumronqoziqdek, yo'lakday, zoldirdek, o'tindek, g'o'ladek, shudringday, chanadek, chigit bosgandek va h.k. Mazkur so'zlarning "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" [5] da o'z aksiga ega emasligi ham bu kabilarning erkin o'xshatishlar (nutqiy o'xshatishlar) guruhiiga mansubligidan dalolat beradi. Ma'lumki, erkin o'xshatishlar nutqiy hosilalar sanalib, lug'atlar qamrovi darajasiga yetib ulgurmagan bo'ladi. Shu jihat bilan ham ular o'ziga xoslikka ega bo'ladi hamda ularni kuzatish va tadqiq etish zarurati mavjud bo'ladi.

O'tkir Hoshimov asarlaridagi erkin o'xshatishlarni kuzatar ekanmiz ikki holatga duch kelamiz, ya'ni bu kabi o'xshatishlarni yaratishda yozuvchi yo biror jiddiy holatni tasvirlash yoki kulgili vaziyatni ifoda etish uchun ularni yaratgan.

Birinchi holat bo'yicha misollarni kuzatamiz: 1. *Qishloqda sog' uyning o'zi ko'rinnas olisga qonga botgan kalladek qip-qizil quyosh ufqqa cho'kib borardi.* ("Tushda kechgan umrlar") 2. *Shoiraning umri bodom guliday bevavrid ochildi-yu, sovuq урган chechakdek qovjiradi.* ("Nur borki, soya bor") 3. *Onasi bir nuqtadan ko'z uzmay turar, sarpochan oyog'i go'shtdek qizarib ketgan edi.* ("Tusgda kechgan umrlar") 4. *Hech kimni ko'rgim kelmas, birov savalab tashlagandek a'zoyi badanim og'riydi.* ("Ikki eshik orasi") Bu kabi misollarda jiddiy holat tasviri – ruhiy holat ifodasi ustunlik qiladi.

Ikkinchi holat, ya'ni kulgili, yengil hajv ifodasi uchun yaratgan erkin o'xshatishlar qatoriga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: 1. *Ming marta katta amaliyam oyog'ingdagi etikday gap.* ("Ikki eshik orasi") 2. *Voyemkomat degani qassobxonadek gap* ("Tushda kechgan umrlar") 3. *Orqa oyoqlab turgani uchunni bodringdek yelinlari dikkayib ketgan.* ("Ikki eshik orasi") 4. *Ola sigir shundoqqina uning yonida poyezzdek pishillab o'tlashga tushadi.* ("Dunyoning ishlari") 5. *Oqsaqol belkurakdek kafti bilan tizasiga urib mazza qilib kuldil.* ("Ikki eshik orasi")

Bilamizki, har bir muallif nutqi neologizmi (individual nutq) yaratilar ekan undagi stilistik-funksional qo'llanishda muayyan bir asos, matn tarkibidagi boshqa birliklar bilan mantiqiy uyg'unlik bo'lishi kerak. Shundagina mazkur muallif nutqi neologizmining nutqiy hosilaligidan lisoniy sath sari siljishi oson kechadi. Fikrimiz dalili uchun yozuvchi asaridagi parchaga murojaat qilamiz: *Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganiningdan inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganmid!* ("Tushda kechgan umrlar")

O'zbek xalqi erta bahorda yurtimizga kelgan va in qurishga shaylangan qaldirg'ochlarga bejziga xayrixohlik ko'rsatmaydi, albatta. Bunda ham, albatta, hikmat bor. Sir emaski, qaldirg'ochning turmush tarzi xalqimiz turmush tarziga o'xshaydi. Barcha mavjudotlar singari qaldirg'och ham nasl qoldirish uchun erta bahordan harakatga tushadi, mehnat qiladi – in quradi, ayrim qushlar kabi tasodifiy, tayyor kovak topib, ko'nib

## LINGUISTICS

ketavermaydi. Uning ini loydan, ya’ni somonli loydan. Har tomonlama qulay, toza, bahavo joydan. So’ngra juft tanlaydi, o’z jufti bilan bo’lib, nasl qoldiradi. Palaponlarini o’zbek xalqi misoli bir inda ulg’aytiradi. Buning uchun ham ona, ham ota qaldirg’och tinimsiz yemak keltiradi. Birini ikkinchisidan kam ko’rmay palaponlarini o’stiradi. Ularning ovqat talashib chug’urlash holati bir ko’rpa ostida ulg’aygan serfarzand o’zbek oilasini eslatadi. Mana shu hayotiy falsafa, turmushning chuqur bilimdoni O’tkir Hoshimov “inidan mo’ralagan qaldirg’och bolasidek” tarzidagi erkin o’xshatishining yuzaga kelishi ham o’ta o’rinli deb aytishimizga asos bo’la oladi.

Xuddi shunday, ya’ni mantiqqa tayanib yuzaga keltirilgan o’rinli o’xshatishlardan yana birini kuzatamiz: *Ammam juda chiroqli, yuzida xoli bor, qosh-ko’zi chaqmoqdek xotin. Ammo judda shaddod. Har gapini xuddi mix qoqqondek tirsillatib gapiradi.* (“Dunyoning ishlari”)

Ko’rinadiki, erkin o’xshatishlar favquloddaligi, originalligi bilan o’quvchiga tez ta’sir ko’rsatadi. Eng asosiysi, ular muayyan bir vaziyat, ruhiy va jismoniy holat, narsa-hodisani kitobxon ko’z o’ngida ravshan gavdalantira oladi.

O’tkir Hoshimov asarlaridagi turg’un va erkin o’xshatishlarni kuzatish davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O’xshatishlar badiiy adabiyotda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, muallif nutqi o’xshatishlari (erkin o’xshatishlar) badiiy matn uchun xarakter kasb etadi. Bunda, albatta, asosli, mantiqqa tayanib yaratilgan o’xshatishlargina til jozibasi, nutq obrazliligi uchun xizmat qila oladi.

2. O’tkir Hoshimov asarlaridagi ko’pgina oxshatishlar -dek/day vositasi bilan hosil bo’lgan, ya’ni ushbu ijodkor asarlarida o’xshatishning leksik vositasidan ko’ra grammatik vositasi qo’llanishi ustuvorlik qiladi. O’tkir Hoshimov asarlaridagi o’xshatishlarning to’qson foizini -dek/day affiksli o’xshatishlar tashkil etadi.

3. Erkin o’xshatishlar ijodkor mahorati, til sezgirligini ko’rsatuvchi omillardan biri sanaladi. Bunga O’tkir Hoshimov ijodida qo’llangan muallif nutqi o’xshatishlari – erkin o’xshatishlarni o’rganish orqali ham ishonch hosil qildik.

4. O’tkir Hoshimov yaratgan erkin o’xshatishlar sifat va miqdor jihatdan turg’un o’xshatishlardan qolishmaydi. Ular yozuvchining badiiy niyatini amalga oshirish, badiiylikni ta’minlash, muayyan bir voqe-hodisani oquvchi ko’z o’ngida gavdalantirish maqsadi o’laroq yaratilgan.

### ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т.: Фан, 1983.
2. Asadov T., Azimova A. *Toshpo’lat Ahmad she’riyati lingvostilistikasi. Monografiya.* – Buxoro: Durdona, 2023.
3. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд, 2006.
4. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Т.: Маънавият, 1999.
5. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. – Т.: Маънавият. 2013.
6. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатишлар. – Т., 1975.
7. Кўнгурев Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Т.: Фан, 1977.
8. Юлдашев М. Бадий матнининг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. . – Т., 2009.
9. Ёкуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатии. – Т.: Фан, 2005.